

TALABALARNING O'QUV JARAYONIGA IJTIMOYIY MOSLASHUV TIZIMINI TASHKILLASHTIRISH

Ergashqulov Boburjon Nusratullayevich

Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12573498>

***Annotatsiya.** Mazkur Maqolada talabalarining o'quv jarayoniga moslashishining asoslari, talabalarining oliy ta'lim muassasasiga samarali moslashishining ijtimoiy, psixologik va pedagogik tomonlari, birinchi bosqich talabalarining o'quv jarayoniga moslashishiga tizimli yondashuv masalalari hamda oliy ta'lim muassasalari talabalarining o'quv jarayoniga moslashishiga oid ilmiy-tadqiqot va uslubiy ishlar tahlili hamda oliy ta'lim muassasalarida talabalarining o'quv jarayoniga moslashishining tashkiliy pedagogik shart-sharoitlarining holati va muammolari haqida pedagogik ma'lumotlar va tavsiyalar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** talaba, o'quv jarayoni, tizim, ta'lim, tarbiya, moslashish, ijtimoiy, pedagogik, psixologik, intellekt, kognitiv, psixoemotsional, xulq-atvor.*

ORGANIZING THE SYSTEM OF SOCIAL ADAPTATION TO THE STUDENTS' STUDY PROCESS

***Abstract.** In this article, the basics of students' adaptation to the educational process, the social, psychological and pedagogical aspects of the effective adaptation of students to the higher educational institution, the issues of a systematic approach to the adaptation of first-level students to the educational process, and the adaptation of students of higher educational institutions to the educational process. Pedagogical information and recommendations are given about the analysis of scientific research and methodical works and the situation and problems of organizational pedagogical conditions of students' adaptation to the educational process in higher education institutions.*

***Key words:** student, educational process, system, education, upbringing, adaptation, social, pedagogical, psychological, intellect, cognitive, psychoemotional, behavior.*

ОРГАНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ АДАПТАЦИИ К УЧЕБНОМУ ПРОЦЕССУ СТУДЕНТОВ

***Аннотация.** В данной статье рассмотрены основы адаптации студентов к образовательному процессу, социальные, психолого-педагогические аспекты эффективной адаптации студентов в высшем учебном заведении, вопросы системного подхода к адаптации студентов первой ступени к образовательному процессу и адаптации студентов высших учебных заведений к образовательному процессу. Даны педагогические сведения и рекомендации по анализу научно-исследовательских и методических работ, а*

таже ситуации и проблемам организационно-педагогических условий адаптации студентов к образовательному процессу. в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: студент, образовательный процесс, система, образование, воспитание, адаптация, социальное, педагогическое, психологическое, интеллект, познавательное, психоэмоциональное, поведение.

Moslashish bu oliy ta'lim sharoitidagi talabalarning turli vaziyatlarga moslashishlariga imkon beruvchi usullar yoki odatiy xulq-atvor shakllari hisoblanib, talabalarning muloqotidagi keskinlik darajasini kamaytirish va ularning adaptiv qobiliyatini oshirish, dars jarayonidagi ijobiy ta'sir doiralarini rag'batlantirish tushuniladi.

Oliy o'quv yurti talabalarining yangi o'quv muhitiga moslashishi, undagi ijtimoiy-psixologik jihatlar Povalyova.M.A., Pean A.A., Kudashev A.R., Baranov A.A., Vsevolodova N.A., Babaxan Yu.S., Dubovitskaya T.D asarlarida va ilmiy ishlarida yetarlicha asoslanib o'rganilgan. Universitetga kirish va o'qish talabalarni yangi madaniy, ta'lim muhitiga jalb qilish bilan birga kechadi, bu moslashish jarayonining boshlang'ich mexanizmi hisoblanadi.

Moslashish jarayonining asosiy qiyinchiligi shundaki, u o'zining barcha jarayonlarda ajralmas shaxsni o'z ichiga oladi va ijtimoiy moslashuv jarayonini quyidagi xususiyatlarga ega:

–talabalarning individual imkoniyatlari, ehtiyojlariga ko'ra, xilma-xil kognitiv, psixoemotsional va ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga qaratilgan ijtimoiy tashkiliy-pedagogik jarayondir;

–talabalarning oliy ta'lim muassasasiga ko'nikishi, me'yori, qadriyat hamda pedagogik o'ziga xos ko'nikmalar, ijtimoiy munosabatlar va ularning tizimiga kira olishni ta'minlovchi kasbiy faoliyatga doir ko'nikma va malakalarni egallash jarayoni;

–yangicha faoliyat va muloqot sharoitlari, oliy ta'lim muassasasi muhiti bilan integratsiyalashuv, uning qadriyatlari, xulq-atvori me'yorlarini qabul qilish, muloqot ko'nikmalari va kasbiy malakalarni shakllantirish jarayoni.

Talabalarda pedagogik moslashishda ijodiy-kommunikativ qobiliyatni rivojlantirish jarayoni bir muncha murakkab jarayon bo'lib, unda ta'limning zamonaviy usullarini ahamiyati beqiyosdir.

Talabaning oliy ta'lim muassasasi sharoitiga moslashuvi ular hayotining barcha sohalarini qamrab olishini hisobga olib, quyidagi umumlashtirilgan mezonlarni ajratish mumkin.

Moslashish jarayoni turli o‘zaro bog‘liq shakllarda mavjud. Ko‘pchilik tadqiqotchilar talabalarning oliy ta‘lim muassasasining o‘quv jarayoniga moslashishining uyidagi shakllarini farqlaydilar:

- 1) talabalar va adaptiv muhit, ya‘ni talabalarning adaptiv ehtiyojlarini faollashtiruvchi vaziyatlarga moslashuvi;
- 2) ijtimoiy moslashuv, ya‘ni birinchi boskich talabalar guruhlarining o‘zaro birlashuvi jarayoni va shu guruhlarining butun talaba muhiti bilan integratsiyalashuvi;
- 3) kasbiy-pedagogik faoliyatga moslashuvchan talaba shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni yaratilishi.

Talabalarda shakllangan motiv va qayd etilgan maqsadli yo‘nalishlar motivatsion-maqsadli komponentni tatbiq etish natijasi sifatida namoyon bo‘ladi. Tizimning mazmuniy-tashkiliy komponenti ta‘lim jarayonidagi kommunikatsiyaning o‘ziga xosligi, shuningdek, ijodkorlikni rivojlantirish metod va usullari haqidagi bilimlarni jamlash va tizimlashtirish masalasini hal qilishga yo‘naltirilgan.

Talabalarning o‘quv jarayoniga tayyorligini quyidagi komponentlar bilan aniqlash mumkin, ular o‘quv-bilish komponenti, qadriyatli-motivatsion komponent, ijtimoiy-psixologik muxitni yanada takomillashtirish orqali talabalarni o‘quv jarayoniga didaktik moslashishini ta‘minlanishiga erishish mumkin. Bu jarayonda quyidagi ko‘rsatkichlar – o‘quv boshqarish bilimlar, o‘quv-axborot bilimlar, intellektual bilimlar, mustaqil bilish faoliyatining mavjudligi, ta‘lim olishga motivatsiyaning o‘z vaqtida berilishi, refleksiv bilimlar majmui, kommunikativ bilimlarning mavjudligi va ularning faollashuvi kabi ko‘rsatkichlarga e‘tibor berish maqsadga muvofiqdir. Bilim olishdagi faollik o‘z navbatida ijtimoiy faollik, o‘quv faoliyatidagi faollik, ta‘lim va tarbiya jarayonidagi faollik hamda talabalarning o‘quv jarayoni va undan tashqaridagi faolligi ham ularning ta‘lim jarayoniga pedagogik moslashishlarini yengillashtirishga olib keladi.

Talabalarning oliy ta‘lim jarayoniga moslashishi ijtimoiy, psixologik, pedagogik va boshqa jihatlarni qamrab oluvchi hodisadir.

Korovina.I.V fikriga ko‘ra esa, universitetdagi talabalarning psixologik moslashuvida quyidagilarni yaqqol ajralib ko‘rsatish mumkin deb hisoblaydi

- o‘quv faoliyati sharoitlariga moslashish (o‘qitishning yangi shakllariga moslashish, bilimlarni nazorat qilish va o‘zlashtirish, boshqa ish va dam olish rejimiga, mustaqil hayot tarziga va shunga o‘xshashlar kabiga moslashishda namoyon bo‘ladi);

- guruhga moslashish (hamkasblarni jamoaga kiritish, uning qoidalari, an‘analarini o‘zlashtirish);

- kelajakdagi kasbga moslashish (kasbiy bilim, ko'nikma va fazilatlarini o'zlashtirish) guruhga moslashish (hamkasblarni jamoaga kiritish, uning qoidalari, an'analarini o'zlashtirish) kabilar. Shaxsni shakllantirishning eng muhim sohalariga asoslanib, birinchi kurs talabalarining moslashuv jarayonining asosiy mazmunini quyidagicha aniqlash mumkin:

- yangi ta'lim standartlarini, ta'lim jarayonidagi qoidalarni o'zlashtirish - talabalarda kasbga tayyorgarlik, kasb layoqatini o'qishning dastlabki yillaridan shakllantirishga e'tibor qaratishga doir chora-tadbirlarni qo'llash;

- ilmiy faoliyatning yangi soha va turlariga o'qitish;

- talabalar turar joyidagi yangi yashash sharoitiga moslashish va boshqalar. Tadqiqotdan xulosa qilib shuni aytish mukinki, quyida keltiriladigan chora tadbirlar talaba yoshlardagi o'quv muhitiga moslashish jarayonini yengillashtiradi :

- Talabalarni yangi o'quv muhitiga moslashtirish uchun pedagoglar tomonidan alohida chora-tadbirlar qo'llash lozim;

- O'quv yilining dastlabki kunlaridanoq OTM amaliy psixologi tomonidan yangi kelgan talabaning o'quv motivlarini aniqlashga qaratilgan so'rovnomalar o'tkazishilishi kerak, shu orqali talabani keyingi o'quv faoliyatidagi samaradorligini ta'minlash mumkin.

- Talaba uchun yangi bo'lgan o'quv muassasa haqida unga to'liq ma'lumot berish, ya'ni, oldindagi hodisalarga nisbatan ustanovka hosil qilish lozim. Xulosa o'rnida shuni aytish mukinki, talabalarni yangi o'quv sharoitlariga moslashtirish pedagogik va psixologik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilarni inobatga olib talablarini o'quv jarayoniga pedagogik moslashishlariga erishishda quyidagi xulosalarni taklif etmoqdamiz. Moslashish oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalash sharoitida talabalarining o'quv jarayoniga moslashishining uchta turdagi psixologik, ijtimoiy va pedagogik hamda komponentlari majmui orqali belgilanadi: rasmiy, umumiy va didaktik. Moslashish tushunchasi keng ma'nodagi tushuncha bo'lib, bu talabalarining faol xarakterlariga turtki bo'luvchi va uning samarali natijasi uchun shart-sharoitlarni yaratish demakdir xamda shaxsning nizolarsiz yangi muxitiga integratsiyalashib ketishidir.

REFERENCES

1. Мустафаева Д. А. Повышение квалификации как фактор конкурентоспособности специалиста //наука—образовательной практике. –2017. –С. 127.
2. Тўйчиев Х. Э. Олий ўқув муассасаларида тармоқ интерфаол таълим воситаларини қўллаш асослари //Современное образование (Узбекистан). –2020. –No. 7 (92). –С. 81-86.

3. Туйчиев Х. Э. Проблемы подготовки будущего учителя в профессиональном образовании (на примере в сфере "технология") //наука и инновации-современные концепции. –2020. –с. 20-22.
4. Химматалиев Д. О., Файзуллаев Р. Х., Мустафаева Д. А. Профессионально-педагогическая компетентность учителя профессионального образования //Журнал научных и прикладных исследований. –2016. –Т. 2. –No. 11. –С. 4-7.
5. Tursunaliyevna A. M., Karimovna N. Y. Maktabgacha tarbiya muassasalarida madaniy-gigiyenik malakalarni tarbiyalash–bolalar organizmining jismoniy rivojlanishida muhim vosita //integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal. –2022. –Т. 3. –No. 1. –С. 98-103.
6. Нарметова Ю. К. Интегрированный подход как важный фактор решения проблемы подготовки клинических психологов //хабаршысы. –С. 57.